

**NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc. 03/30.12.2019.Ped.34.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

PIRIMBETOV BAXIT ALLABAEVICH

**O‘QUVCHILARNI INTELLEKTUAL RIVOJLANTIRISHDA
PEDAGOGIK ARTISTIZMDAN FOYDALANISH TEXNOLOGIYALARI**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

NUKUS – 2025

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Pirimbetov Baxit Allabaevich

О'quvchilarni intellektual rivojlantirishda pedagogik artistizmdan
foydalanish texnologiyalari..... 3

Пиримбетов Бахыт Аллабаевич

Технологии применения педагогического артистизма в
интеллектуальном развитии учащихся..... 25

Pirimbetov Bakhit Allabaevich

Technologies for using pedagogical artistry in the intellectual development
of students..... 49

E'lon qilingan ishlar ro'yhati

Список опубликованных работы

List of published works..... 53

**NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc. 03/30.12.2019.Ped.34.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

PIRIMBETOV BAXIT ALLABAEVICH

**O‘QUVCHILARNI INTELLEKTUAL RIVOJLANTIRISHDA
PEDAGOGIK ARTISTIZMDAN FOYDALANISH TEXNOLOGIYALARI**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

NUKUS – 2025

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Ped4852 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Nukus davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezюме)) ilmiy kengash veb-sahifasi (www.ndpi.uz) va «ZiyoNET» ta'lim portalida (www.ziyo.net) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Ne'matov Shuhrat Ergashovich
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy oponentlar: Berdimuratova Alima Karlibaevna
falsafa fanlari doktori, professor
Xodjaev Begzod Xudoyberdievich
pedagogika fanlari doktori, professor

Etakchi tashkilot: Urganch davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Nukus davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Pod.34.01 raqamli ilmiy kengashning 2025 yil "12" kuni soat 14⁰⁰ daqiqligida bo'lib o'tadi. (Manzil: 230105, Nukus shahri, P.Seytov ko'chasi raqamsiz uy.) Tel.: (99861) 229-40-75; faks: (99861) 229-40-75; e-mail: nkspi_info@edu.uz

Dissertatsiya bilan Nukus davlat pedagogika institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 230105, Nukus shahri, P.Seytov ko'chasi raqamsiz uy.) Tel.: (99861) 229-40-75; faks: (99861) 229-40-75.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil "12" kuni tarqatildi.
(2025 yil "12" kuni "12" raqamli reestr boyonnomasi).



B.P. Otemuratov
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, f.m.f.d., professor

Z.K. Kurbaniyazova
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, p.f.d., professor

A.Q. Berdimuratova
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, f.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiyasi mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda nufuzli oliy ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot markazlarida umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilarining o'quvchilarni intellektual rivojlantirishda pedagogik artistizm imkoniyatlari (Cambridge University, AQSH), o'quvchilarni har tomonlama rivojlantirishda pedagogik artistizmdan foydalanishga oid yangicha yondashuvlar (Leland Stanford Junior University, AQSH), o'qituvchilar malakasini oshirish jarayonida o'quvchilarni intellektual jihatdan rivojlantirishga oid innovatsion g'oyalar (Sankt Peterburg universiteti, Rossiya) ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu tadqiqotlar o'quvchilarni intellektual rivojlantirishda pedagogik artistizmdan foydalanish texnologiyalarini aniqlash zaruriyatini ko'rsatadi.

Jahonda ta'limning modernizatsiyalashuvi jarayonida o'qituvchilarning ijodkorlikka oid salohiyatini rivojlantirishning didaktik tizimini takomillashtirish, o'qituvchilarning innovatsion dunyoqarashini shakllantirish orqali ularda o'quvchilarni intellektual rivojlantirishga oid yangicha qirralarini ochish, o'qituvchilarning mustaqil malaka oshirish jarayonlarini jadallashtirish, ularning shaxsiy-kasbiy kompetentligini tarkib toptirish, ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanishga doir qator ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ayniqsa, ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalarning ahamiyati, o'quvchilarni rivojlantirishning yangicha usullarini izlab topish va amaliyotda qo'llash, shuningdek, teatr pedagogikasining imkoniyatlaridan keng ko'lamda foydalanish, o'quvchilarni o'zlarining faoliyatlarini tahlil etish va baholashga o'rgatish, o'quvchilarning kasb-hunar tanlash qobiliyatlari va ilm o'rganishga bo'lgan layoqatlarini aniqlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu esa, umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarni intellektual rivojlantirishda pedagogik artistizmdan foydalanish texnologiyalarini aniqlash, pedagogik artistizm imkoniyatlaridan keng foydalanish, o'qituvchilarning bu sohadagi bilim va tajribalarini pedagogik jamoatchilik orasida keng ko'lamli targ'ib qilish zarurligini taqozo etmoqda.

Respublikamizda o'quvchilarni rivojlantirishda pedagogik artistizm imkoniyatlaridan foydalanish, ularni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy, ma'naviy-tarixiy an'analar, urf-odatlarini hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalarni ishlab chiqib amaliyotga joriy etish muhimdir. Yurtimiz taraqqiyotini rivojlantirish yo'lida chuqur islohatlar olib borilayotgan bugungi davr talablariga mos ravishda har tomonlama barkamol rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, mamlakatimiz istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, zamonaviy texnologiyani mukammal o'zlashtirgan, xalq manfaati yo'lida bor kuch va salohiyatini safarbar qiladigan, shijoatli va iqtidorli yoshlarni va kasb egalarni tarbiyalash, ularning intellektual va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish, huquqiy poydevor yaratish eng dolzarb muammolardan biri hisoblanmoqda¹. Shu nuqtai nazardan ushbu ilmiy-tadqiqot ishi dolzarb muammo echimiga qaratilgan.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi Maktab ta'limini rivojlantirish masalalari yuzasidan videoselektordagi nutqi // <https://president.uz/oz/lists/view/4945>

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentyabrdagi PF-5538-sonli “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi PQ-4306-son “Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 22-fevraldagi 154-son “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari va akademik litseylarning iqtidorli bitiruvchilarini oltin va kumush medallar bilan taqdirlash tartibi to‘g‘risida Nizom” bo‘yicha, 2019-yil 25-iyundagi 526-son “Prezident maktablari to‘g‘risida Nizom” bo‘yicha qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda bevosita mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayan darajada xizmat qiladi

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Respublikamiz hamda xorijda mazkur muammo va uning echimiga bag‘ishlangan qator ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Jumladan, respublikamizda X.Abdukarimov, R.Ishmuxamedov, O‘.Tolipov, N.Azizxodjaeva, R.Djurayev, V.Andriyanova, SH.Mardonov, T.Almatov, Z.Kurbaniyazova, A.Bekimbetova kabi olimlar va mutaxassislar o‘quvchilarni har tomonlama rivojlantirishda pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini ochib berganlar.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan Sh.Amonashvili, B.Ananev, V.Andreev, L.Vigotskiy, A.Leont’ev, D.Elkonin, B.Farberman, B.Klarin, Y.Babanskiy, L.Zankov, V.Kraevskiy, K.Stanislavskiy, I.Lerner kabi olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlarida o‘quvchilarni har tomonlama rivojlantirish, bunda pedagogik va psixologik ta’sirlar, pedagogik texnologiyalar va ularning o‘quvchilarni rivojlantirishdagi o‘rni xususida bayon qilganlar.

Xorijda V.Adolf, R.Berne, I.Kant, K.Yung, P.Soper, M.Michael, E.Maks, X.Lemmerman, E.Zeyer kabi olimlar o‘qituvchilarning pedagogik mahorati, innovatsion jarayonlarni boshqarish, o‘quvchilarni barkamol shaxs sifatida shakllanishlarida axloqiy, estetik va aqliy ta’lim-tarbiyaning muhimligi to‘g‘risida ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan.

Yuqorida qayd etilgan tadqiqotlarda ta’lim-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanish, ularning o‘quvchilarni rivojlantirishdagi ahamiyati, o‘qituvchilarning pedagogik mahorati, ta’lim jarayonida innovatsion metodlarni qo‘llash orqali o‘quvchilarni faollashtirish, o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma,

malakalari hamda hayotiy kompetensiyalarini rivojlantirishning ayrim jihatlari ochib berilgan. Biroq umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarni intellektual rivojlantirishda pedagogik artistizmdan foydalanish texnologiyalarini aniqlash muammosi mustaqil tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Nukus davlat pedagogika instituti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining "Uzluksiz ta'lim tizimida III Renessans davriga mos yoshlarni o'qitish va tarbiyalash texnologiyasini takomillashtirish" mavzusidagi ilmiy yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o'quvchilarni intellektual rivojlantirishda pedagogik artistizmdan foydalanish texnologiyalarini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

o'quvchilarni intellektual rivojlantirishda pedagogik artistizmdan foydalanish jarayoni mazmuni va mohiyatini yoritib berish;

pedagogik artistizmning texnologik blok-sxemasini ishlab chiqish orqali o'quvchilarni intellektual rivojlantirishning konseptual asoslarini ochib berish;

o'quvchilarni intellektual rivojlantirishda pedagogik artistizmdan foydalanish modelini takomillashtirish;

o'quvchilarni intellektual rivojlantirishda pedagogik artistizmdan foydalanish texnologiyalarini bosqicha-bosqich qo'llashning didaktik asoslarini takomillashtirish.

Tadqiqot obyekti sifatida o'quvchilarni intellektual rivojlantirishda pedagogik artistizmdan foydalanish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlarida Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro va Jizzax viloyatlari xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazlarining 275 nafar tinglovchilari ishtirok etdi.

Tadqiqotning predmetini o'quvchilarni intellektual rivojlantirishda pedagogik artistizmdan foydalanish jarayonining mazmuni, modeli va texnologiyalari tashkil qiladi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotda ilmiy adabiyotlar tahlili, analitik sharh, qiyoslash, dalillarni asoslash, taqqoslash, anketa, savol-javob, suhbat, intervyu, pedagogik eksperiment, matematik statistika usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o'quvchilarni intellektual rivojlantirishda pedagogik artistizmdan foydalanish jarayoni o'qituvchining radiant fikrlashi, emotsional intellekti, kreativligi kabi indikatorlar sintezi sifatida ta'lim oluvchi shaxsiga samarali ta'sir ko'rsatish va faolligini oshirish taktikasi ekanligini empirik asoslash orqali aniqlashtirilgan;

pedagogik artistizmning texnologik blok-sxemasi ichki hissiy barqarorlik, attraktivlik, assertivlik kabi internal, pedagogik va nutq texnikasi, pedagogik dramaturgiya, rejussura, mezanssena singari eksternal jihatlarining validlik darajasi paritentligini hisobga olish asosida aniqlashtirilgan;

o'quvchilarni intellektual rivojlantirishda pedagogik artistizmdan foydalanish modelining funksional-tashxisli bosqichi motivatsion, mobilizatsion, jalb qiluvchi, ko'makchi, rag'batlantirish, sintetik funksiyalarni tashxis etishga doir o'qituvchi

shaxsi tasavvurining kuchi va boyligi bilan bog'liq grafik va rang-tasvir hamda blits-suhbat kabi diagnostik vositalarning adaptiv variantlarini ishlab chiqish orqali takomillashtirilgan;

o'quvchilarni intellektual rivojlantirishda pedagogik artistizmdan foydalanish texnologiyalari metodologik, o'zlashtiruvchi, korreksiyalovchi, yakuniy bosqichlarga muvofiq kasbiy o'sish treninglarini maqsadli loyihalashning kontseptual asoslariga ustuvorlik berish orqali takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

“O'quvchilarni rivojlantirishda pedagogik artistizm imkoniyatlari” nomli uslubiy qo'llanma chop etilgan;

“Tarbiyaviy ishlar metodikasi” nomli o'quv qo'llanma chop etilgan;

o'quvchilarni intellektual rivojlantirishda pedagogik artistizmdan foydalanish texnologiyalarini loyihalashning didaktik tizimi takomillashtirilgan;

o'quvchilarni intellektual rivojlantirishda pedagogik artistizmdan foydalanish texnologiyalarini o'quv-tarbiya jarayoniga tatbiq etishga doir ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan;

Tadqiqot natijalarining ishonchligi tadbiq etilayotgan muammoga falsafiy hamda ilmiy-pedagogik yondashuv, tadqiqot maqsadi, obykti, predmeti, vazifalariga mos keluvchi metodlar majmuasidan foydalanilganligi, olib borilgan tahlil natijalarining jahon standartlariga mos tarzda pedagogik artistizmi rivojlantirishga asos bo'ladigan dalillar bilan tasdiqlanganligi, tajriba-sinov ishlarining samaradorlik darajasi matematik-statistik metodlar vositasida aniqlanganligi, berilgan taklif va tavsiyalarining asoslanganligi va vakolatli organlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati “o'qituvchining artistlik qobiliyati”, “pedagogik artistizm imkoniyatlari”, “teatr pedagogikasi” tushunchalariga mualliflik ta'riflarining shakllantirilganligi, umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilarining o'quvchilarni intellektual rivojlantirishda pedagogik artistizim elementlaridan foydalanishga oid asosiy yo'nalishlar va yetakchi tendensiyalari aniqlashtirilganligi, teatr pedagogikasi, pedagogik artistizmga oid xalqaro ilg'or xorijiy tajribalarning tahlil etilganligi, ilg'or xorijiy tajribalar asosida umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilarining o'quvchilarni intellektual rivojlantirishda pedagogik artistizim elementlaridan foydalanish mazmunining yoritib berilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilarining o'quvchilarni intellektual rivojlantirishda pedagogik artistizm elementlaridan foydalanish texnologiyalari va pedagogik shart-sharoitlari aniqlanganligi, ilg'or xorijiy tajribalar asosida o'qituvchilarning o'quvchilarni intellektual rivojlantirishga oid kasbiy kompetentligini uzluksiz rivojlantirish jarayonlarini loyihalash tizimi takomillashtirilganligi, ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlash orqali umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilarining kasbiy-shaxsiy tayyorgarligi sifatiga qo'yiladigan malakaviy talablarni takomillashtirish bo'yicha ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilganligi

bilan belgilanadi. Tadqiqot natijalari sifatida umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilarining o'quvchilarni intellektual rivojlantirishda pedagogik artistizm texnologiyalarini qo'llashga doir ilmiy-metodik tavsiyalaridan foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'quvchilarni intellektual rivojlantirishda pedagogik artistizmdan foydalanish texnologiyalari bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

o'quvchilarni intellektual rivojlantirishda pedagogik artistizmdan foydalanish jarayoni o'qituvchining radiant fiklashi, emotsional intellekti, kreativligi kabi indikatorlar sintezi sifatida ta'lim oluvchi shaxsiga samarali ta'sir ko'rsatish va faolligini oshirish taktikasi ekanligini emoirik asoslash orqali aniqlashtirishga doir amaliy taklif va tavsiyalardan 60110500 – Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi uchun "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" o'quv qo'llanmasini yaratishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrda PQ-61-son Qarori asosida moliyaviy va akademik mustaqillik berilgan Guliston davlat universiteti rektorining 2024-yil 28-maydagi 78-son buyrug'i, 78-05 raqamli guvohnoma). Natijada, o'quvchilarni intellektual tarbiyalashda bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik artistizmdan foydalanish malakasini rivojlantirishga xizmat qilgan;

pedagogik artistizmning texnologik blok-sxemasini ichki hissiy barqarorlik, attraktivlik, assertivlik kabi internal, pedagogik va nutq texnikasi, pedagogik dramaturgiya, rejussura, mezanssena singari eksternal jihatlarning validlik darajasi paritentligini hisobga olish asosida aniqlashtirishga doir amaliy taklif va tavsiyalardan O'zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot institutida amalga oshirilgan PZ-2014-0905173317 – "O'quvchilarni kasb-hunarga samarali yo'naltirish orqali umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi uzviyligini ta'minlash mexanizmini ishlab chiqish va joriy etish" mavzusidagi amaliy loyihasining o'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini tashxis etish qismini bajarishda foydalanilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024-yil 17-avgustdagi 11-05-4253/03-son dalolatnomasi). Natijada, o'quvchilarni intellektual rivojlantirish oqrqali kasbga maqsadli yo'naltirishga xizmat qilgan;

o'quvchilarni intellektual rivojlantirishda pedagogik artistizmdan foydalanish modelining funksional-tashxisli bosqichini motivatsion, mobilizatsion, jalb qiluvchi, ko'makchi, rag'batlantirish, sintetik funksiyalarni tashxis etishga doir o'qituvchi shaxsi tasavvurining kuchi va boyligi bilan bog'liq grafik va rang-tasvir hamda blits-suhbat kabi diagnostik vositalarning adaptiv variantlarini ishlab chiqish orqali takomillashtirishga doir amaliy taklif va tavsiyalardan O'zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot institutida amalga oshirilgan PZ-2014-0910185149. "Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari" mavzusidagi amaliy loyihasining o'quvchilarda kognitiv kompetensiyalarni shakllantirish qismini bajarishda foydalanilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024-yil 17-avgustdagi 11-05-4253/03-son dalolatnomasi). Natijada, o'quvchilarni

intellektual rivojlantirishda kompetensiyaviy yondashuvdan foydalanish samaradorligini oshirishga xizmat qilgan;

o'quvchilarni intellektual rivojlantirishda pedagogik artistizmdan foydalanish texnologiyalarini metodologik, o'zlashtiruvchi, korrektsiyalovchi, yakuniy bosqichlarga muvofiq kasbiy o'sish treninglarini maqsadli loyihalashning konseptual asoslariga ustuvorlik berish orqali takomillashtirishiga doir taklif va tavsiyalardan 60110500 – Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi uchun "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" o'quv qo'llanmasini yaratishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrda PQ-61-son Qarori asosida moliyaviy va akademik mustaqillik berilgan Guliston davlat universiteti rektorining 2024-yil 28-maydagi 78-son buyrug'i, 78-05 raqamli guvohnoma). Natijada, o'quvchilarni intellektual rivojlantirishda pedagogik artistizmdan foydalanish texnologiyalarini qo'llash samaradorligini oshirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta o'quv qo'llanma, 1 ta uslubiy qo'llanma, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan 3 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, 141 sahifa matn, xulosalar, tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi asoslangan, dissertatsion tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy o'quv yurti ilmiy-tadqiqot rejalari bilan aloqadorligi ochib berilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti, predmeti va tadqiqot metodlari ifodalangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, olingan ma'lumotlarning ishonchligi bayon etilgan, ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan tadqiqot natijalarining tatbiqi va ularning sinovdan o'tishi bayon qilingan. Bundan tashqari, chop etilgan ishlar va dissertatsiya hajmi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**O'quvchilarni intellektual rivojlantirishda pedagogik artistizmdan foydalanishning nazariy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida o'quvchilarni intellektual rivojlantirishda pedagogik artistizmdan foydalanish texnologiyalarini aniqlash dolzarb pedagogik muammo ekanligi hamda o'quvchilarni intellektual rivojlantirishda pedagogik artistizmdan foydalanishning amaliyotdagi holati tahlili bayon qilingan.

Yurtimizning kelajagi mamlakatimiz yoshlarining intellektual salohiyati, aql-zakovoti, milliy ta'lim-tarbiya tizimini jahon andozalari asosida takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash hamda salohiyatli kadrlar tayyorlashga bevosita bog'liq. Bugungi kunda ta'lim tizimi, asosan o'qituvchi oldida qator

quyidagi dolzarb muammolar mavjudki, ularni bartaraf etish orqali ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlash zarur:

tobora rivojlanib borayotgan XXI asrda ta'lim jarayonini AKT va nanotexnologiyalar taraqqiyoti bilan muvofiqlashtirish orqali ta'lim sifatini oshirish;

davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqishda ta'limga oid eng so'nggi yangiliklar, xalqaro ilg'or tajribalardan foydalanish;

har tomonlama yetuk, kasbiy layoqatli, yuqori darajadagi ijodiy kompetentlik va aktyorlik qobiliyatiga ega, o'z kasbining ustasi bo'lgan o'qituvchini tayyorlash;

o'qituvchining ijodiy, tadqiqotchilik, izlanuvchilik qobiliyatlarini rivojlantirish, ular oldiga aniq vazifalar qo'yish va ularni hal qilishning muqobil shakllarini ishlab chiqishga o'rgatish;

o'qituvchi jamiyat a'zolari orasida o'zining madaniyatligi, ma'naviyati, axloqiy barkamolligi bilan ajralib turishi;

o'qituvchi "hayot davomida bilim olish" tamoyiliga amal qilgan holda muntazam o'z ustida ishlashi;

o'qituvchi ta'lim-tarbiyaning ilg'or texnologiyalari, mahalliy va xorij tajribasi hamda ilm-fanning eng so'nggi yutuqlaridan xabardor bo'lishi hamda ulardan ta'lim amaliyotida unumli foydalana olishi;

o'qituvchi pedagogika bilan turdosh hisoblanadigan falsafa, psixologiya, tibbiyot, dinshunoslik, iqtisodiyot, madaniyatshunoslik, huquqshunoslik, kibernetika kabi fanlarga oid bilimlar, amaliy ko'nikmalar va malakalarni integratsiyalashni talab qiladigan qator yangi murakkab kasbiy-pedagogik vazifa va muammolarni hal qila olishi kabilar.

Yuqoridagi muammolarni hal qilish va bugungi o'qituvchilik kasbining ommaviy xarakteri sharoitida davlat va jamiyat uning to'laqonli kasbiy realizatsiyasi uchun tegishli sharoit yaratishdan manfaatdor. Hech kimga sir emaski, har bir millat ravnaqi, davlat va jamiyat taraqqiyoti, hatto jahon tsivilizatsiyasi taqdiri ham o'qituvchining muvaffaqiyatli pedagogik faoliyatiga bog'liq.

Pedagogik artistizm — o'qituvchiga o'z fikrini chuqurroq, yorqinroq ifodalash, o'quvchilarga o'z fikr va his-tuyg'ularini etkazish imkonini beradigan shaxsiy fazilatlarining murakkab sintezidir. O'qituvchi shaxsiy xususiyatlarining mazkur yig'indisi dinamik, integral shakllanish bo'lib, real vaziyatlarda uning turli tomonlari dolzarblashadi. Pedagogik artistizmning ayrim tarkibiy qismlari o'qituvchi shaxsining eng rivojlangan xususiyatlari, pedagogik vazifalarning tabiati va boshqalarga qarab etakchi va yordamchi bo'lib qoladi. Shuning uchun ham pedagogik artistizmning mazmun-mohiyatini talqin qilish juda ziddiyatli.

Demak, pedagogik artistizm o'qituvchining shaxsiy-kasbiy sifati bo'lib, uni shakllantirishga oid tizimli yondashuvlar, uning tuzilish va mazmuniga oid komponentlarni aniqlash, rivojlantirish tamoyillari va faoliyat sohalarini belgilash, shakllanish yo'llari va usullarini asoslash lozim.


Bizningcha, pedagogik artistizm — o'qituvchi pedagogik faoliyat barcha bosqichlarida u yoki bu darajada namoyon bo'ladigan shaxsiy xususiyat

hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda, o‘qituvchining ta’lim oluvchilar bilan do‘stona aloqa o‘rnatish, ularning ishonchini qozonish va shu asosda pedagogik jarayonning barcha sharoitlarini hisobga olgan holda harakatlanishni ta’minlaydigan jismoniy va ruhiy sifatlar birikuvi, uning individualligi, shaxsiy sifati hamdir.

O‘qituvchining aktyorligi (artistlik qobiliyati) nafaqat kuchli improvizatorligi, balki dars ssenariysini tuzish, uning etolonini yaratish, dars jarayonida o‘zini erkin tutish, pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish, mimikasini boshqarish, urg‘u, pauza, dialog va monologlarni o‘z o‘rnida qo‘llay olish layoqati, o‘quvchilar bilan do‘stona muhitni yarata olish qobiliyatidir.

Bizning fikrimizcha, dars jarayonida o‘qituvchining “yoqimli”, “ta’sirli” gapira olishi juda muhimdir. Vaholanki, ijtimoiy hayot haqida, biror mavzuda yoqimli gapirish uchun hayotni juda sevish kerak. Bu esa o‘qituvchilik kasbini sevish, ardoqlash orqali rivojlanib boradi.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, pedagogik artistizm — o‘qituvchining san’at darajasiga ko‘tarilgan faoliyati bo‘lib, o‘quvchilarni intellektual jihatdan rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchining aktyorlik mahoratisiz dars jarayonida o‘quvchilarni ma’naviy yuksaklikka ko‘tarishning imkoniyati mavjud emas. Aktyorlik mahoratini chuqur egallagan o‘qituvchi teatr jihozlari, teatr ta’sir vositalari, sahna, dekoratsiya, liboslar, simfonik orkestr bo‘lmasada o‘quvchilarni intellektual jihatdan rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Buning uchun o‘qituvchi stol, stul, doska, bo‘r, ko‘rgazmali qurollar, videoproektor vositalari, pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan unumli foydalanadi. Pedagogik artistizm strukturasi ikki — ichki va tashqi jihatlardan iborat (1-rasmga qarang).



1-rasm. Pedagogik artistizmning ichki va tashqi jihatlari

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilganidek, pedagogik artistizmning ichki va tashqi jihatlari mavjud bo‘lib, ular o‘qituvchining o‘qituvchilik faoliyatida muhim ahamiyatga ega.


Dissertatsiyaning “**O‘quvchilarni intellektual rivojlantirishda pedagogik artistizmdan foydalanishning amaliy asoslari**” deb nomlangan ikkinchi bobida o‘quvchilarni intellektual rivojlantirishda pedagogik artistizmdan foydalanish mazmuni va imkoniyatlari, o‘quvchilarni intellektual rivojlantirishda pedagogik artistizmdan foydalanish modeli, o‘quvchilarni intellektual rivojlantirishda pedagogik artistizmdan foydalanish usullari va texnologiyalari yoritib berilgan.

Kuzatishlarimiz va tajriba-sinov ishlarimiz jarayonida shunga guvoh bo‘ldikki, o‘qituvchilar o‘quv dasturidan chetga chiqishga qo‘rqadi, o‘quvchilarni intellektual rivojlantirishda qo‘shimcha o‘quv materiallarini taqdim etmaydilar. Shuning uchun ham bugungi kunda o‘quvchilarning darsga nisbatan qiziqishlari past, aslida ularning olam manzarasi haqidagi tasavvurlari va ilmiy dunyoqarashi ancha kengdir. Demak, sinfda o‘rtamiyona o‘qituvchi-aktyor bo‘lishdan ko‘ra, o‘quvchi-tomoshabinni jonli his qiladigan, ularning hissiyotlarini tushunadigan rejissyor bo‘lish orqali fasilitator roliga ega bo‘lish muhimdir.

Eng asosiysi, o‘qituvchi ijodkor bo‘lmas ekan, u o‘quvchilarni intellektual rivojlantirishda qiyinchiliklarga duch keladi. Ijodkorlik esa, eng avvalo o‘qituvchining shaxsiyati, dunyoqarashi, fuqarolik va estetik intilishlari bilan belgilanadi. Shu bilan bir qatorda o‘qituvchining ijodkorligi, uning ruhiy holati, sinfdagi psixologik muhit bilan bog‘liq.

Pedagogik texnikaning dastlabki usullari va eng muhim pedagogik vazifalarni hal qilish uchun pedagogik artistizm asoslarini o‘zlashtirish o‘qituvchiga sinfda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarning sababini tushunib, tez va maqsadli harakat qilish, o‘quvchilarga dam olishga imkon berish yoki aksincha, ish suratini oshirishga ko‘maklashadi. Shuningdek, o‘qituvchiga o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishlarini faollashtirishning samarali vositasini izlab topish, ustozlar tajribasidan unumli foydalanib, o‘zining subyektivligini boyitib borish, natijada, o‘z-o‘zini mohirona namoyon qilishga yordam beradi. Bu o‘rinda o‘qituvchining nutq texnikasi elementlarini bilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘qituvchining nutq texnikasi elementlari 2-rasmda keltirib o‘tilgan.



2-rasm. O‘qituvchining nutq texnikasi elementlari

Yuqoridagi rasmda ko‘rinib turibdiki, o‘qituvchining nutq texnikasi elementlari ichida uning ovozi (balandligi, diapazoni, jarangi, tembri) markaziy o‘rinni egallaydi. O‘qituvchining nutq texnikasi uning nutq madaniyati bilan bevosita bog‘liq. O‘qituvchining nutq madaniyatida ikki — ta’sirchan va to‘g‘ri talaffuzli nutq muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta’sirchan nutq shakllariga mantiqiy, mazmun va axborotga boy, lo‘nda, o‘rinli, aniq, sodda, tushunarli, mayin, ifodalikni kiritish mumkin.

To'g'ri talaffuzli nutqqa esa lug'aviy jihatdan boy, orfoepik, grammatik, leksik, stilistik (uslubiy), punktuatsion, orfografik (imlo) shakllari kiritiladi.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda nutqning ifodalik vositalari mavjud bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

nutqning stilistik va sintaksis usullari: takrorlash, inversiya, gradatsiya, antiteza, ritorik so'roq, ritorik undov;

troplar, ya'ni tasviriylikning lug'aviy vositalari: epitet (sifatlash), qiyoslash, metafora, metonimiya, sinekdoxa, giperbola, jonlantirish, perifraz;

frazologik birliklar: maqollar, matallar, aforizmlar, tasviriy ifodalar;

komik: yumor, satira, ironiya (kinoya), sarkazm.

Tahlillar asosida pedagogik artistizm elementlari shakllangan o'qituvchilarda yuqorida ko'rsatib o'tilgan barcha jihatlar mavjud bo'lishi lozim degan xulosaga kelindi.

Pedagogik muloqot jarayonida pedagogik artistizmni mukammal egallash uchun o'qituvchilar quyidagi funksiyalarni bajarishlari talab etiladi:

1. Motivatsion. Ushbu funksiya nafaqat darsga tayyorgarlik vaqtida, balki o'qituvchining pedagogik artistizmi o'quvchilar uchun muhim o'rin egallaydigan, ta'limning kognitiv motivatsiyasini oshirishga yordam beradigan, haqiqiy bilimlarni ularning hissiy idroklari bilan bog'lashga imkon beradigan va hissiyotlarini majoziy umumlashtirish orqali e'tiqodlarni shakllantiradigan faoliyat jarayonida ham amalga oshiriladi.

2. Mobilizatsion (safarbarlik). Ushbu funksiya asosan o'qituvchining sinf xonasida o'quvchilar bilan ilk muloqotni olib borish bosqichida amalga oshiriladi. Bunda o'qituvchidan o'zini turli zo'riqlashlar, stresslar va qo'rquvdan xalos qila olishi, o'zini ruhiy jihatdan safarbar qila olishi, pedagogik artistizm ilk elementlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishi, o'zining ichki kechinmalari va tashqi qiyofasini jilovlay olishi, sinf xonasida o'zini erkin tuta olishi talab etiladi.

3. Jalb qiluvchi. Pedagogik artistizm o'qituvchiga o'zini erkin shaxs sifatida his etish, xatti-harakatlarini mustaqil boshqarishga yordam beradi. O'qituvchining shaxsiy o'z-o'zini namoyon etishi o'quvchilar oldiga ma'lum vakolatlarga ega bo'lgan, sinf xonasining egasi sifatida emas, balki uning pedagogik artistizm elementlarini qanchalik egallaganligi va rollarni bekamiko'st bajara olishida namoyon bo'ladi.

4. Yordamchi, ko'makchi. Pedagogik artistizm o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro do'stona munosabatlarni osonlashtiradi. Ushbu funksiya shuningdek, o'quvchilarda o'z tengdoshlari fikrini qabul qilish, tushunish, boshqa madaniyatga nisbatan bag'rikenglikni namoyon etishga yordam beradi.

Shuningdek, ushbu funksiya orqali o'qituvchilar dars jarayonida o'quvchilar bilan iliq munosabatda bo'ladi, yangi o'quv materiallarini tushuntirishda o'quvchilarga ko'proq savollar berib ularni hushyorlikka chaqiradilar.

5. Rag'batlantirish. Bu dars jarayonida o'qituvchining ijodiy farovonligini rag'batlantirish va o'quvchilardagi ijodkorlikni qo'llab-quvvatlash funksiyasini

bajaradi. Ushbu jarayonda o'qituvchining shaxsiyati, xatti-harakatlari, o'quvchilar bilan hamkorlik, sheriklik qila olish kompetensiyalari muhim ahamiyatga ega. O'qituvchining ichki dunyosi bilan tashqi ko'rinishi uyg'unligi o'quvchilarni u bilan va umuman maktab jamoasi a'zolari bilan muloqot qilishdan hissiy qoniqish tajribasini rag'batlantiradi, shuningdek, o'quvchilarni rang-barang dunyoning betakror hodisalariga nisbatan hissiyotli munosabatlarini shakllantiradi, hayotiy tajribalarini boyitadi.

6. Sintetik. O'qituvchining kasbiy-shaxsiy faoliyati jarayonida o'zini namoyon qila olishi, o'ziga xosligi, o'quvchilar bilan ochiqlik tamoyili asosdagi munosabati sinf jamoasi bilan hissiy va psixologik birlikka erishishga yordam beradi. Sinfdagi hamkorlikdagi ijodiy muhit nafaqat o'qituvchini ilmiy-pedagogik jihatdan rivojlantiradi, balki o'quvchilarning tafakkuri, dunyoqarashini boyitadi. Bunday hamkorlikdagi ijodiy xatti-harakatlar, intilishlar sintetik funksiya orqali amalga oshiriladi.

O'qituvchi madaniyatlik darajasining yuqoriligi, uning pedagogik artistizm komponentlarini egallaganligi ta'lim jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Biz quyida o'qituvchi egallashi lozim bo'lgan pedagogik artistizm komponentlarini izohlashga harakat qilamiz.

Demak, pedagogik artistizmning komponentlari quyidagilardan iborat:

o'qituvchining vaziyatga qarab o'zgarishi, ochiqligi, mustaqilligi;

o'z kechinmalari, quvonchini o'quvchilarga o'tkaza olishi; dars jarayonida o'quvchilarni o'ziga maftun qila olishi, sehrlashi;

o'z-o'zini taqdim qilish texnikasini egallaganligi;

ichki va tashqi, estetik jozibadorligi;

dars jarayonida improvizatsiya imkoniyatlaridan unumli foydalana olishi;

ijodiy muhitni mobilizatsiyalay olishi;

o'zi va o'quvchilarning kayfiyatini boshqara olishi;

empatiya, refleksiya ga egaligi;

kinetik vositalar: notiqlik, ovoz jarangi ifodaligi; ishontira olish qobiliyati; so'z ta'sirchanligi san'atini egallaganligi; xulq-atvorini jilovlay olishi;

muloqotning noverbal vositalari: kinestika (imo-ishora, mimika, yurish-turish, xatti-harakat); proksemika (muloqotning makon jihatlari).

Pedagogik artistizmning yana bir muhim komponenti borki, undan respublikamiz umumiy o'rta ta'lim maktablari amaliyoti foydalanib bo'lmaydi. Bu taktil muloqot bo'lib, unga o'qituvchilar o'quvchilar bilan qo'l berib ko'rishishi, bir-birlarini quchishi va shu kabilar kiradi.

O'qituvchi dars jarayonida pedagogik artistizm vositasida o'quvchilar qalbiga ezgulik, yorqinlik, go'zallik, xushmuomalalik, nazokatlik kabi sifatlarga nisbatan xayrixohlik tuyg'usini uyg'otadi. Shuning uchun ham har bir dars jarayoni teatrlashtirilgan o'yinlar shaklida tashkil etilishi kerak. Shundagina o'quvchilar har bir darsni intiqlik bilan kutadilar, yuqori baho olishga harakat qiladilar, o'qituvchini hurmat qiladilar. Bunday o'qituvchilarning pedagogik artistizmni egallaganliklarini aniqlashda bir qator

usullardan foydalanish mumkin. Biz ularni shartli ravishda quyidagicha tasniflashga harakat qilamiz:

I. Grafik va rangtasvir. Mazkur usul o'qituvchi shaxsi tasavvurining kuchi va boyligi bilan bog'liq bo'lib, o'quvchilarga yangi mavzuni taqdim etish jarayonida undagi turli qirralar, qora va oq yoki turli rangli tasvirlarni aniq ko'rsata olishi kerak. Undagi ranglarning shaxs ijodiy salohiyati, hissiyotlarini rivojlantirishga hissa qo'shishini uqtira olishi zarur.

Ushbu usulning afzalligi shundaki, shaxs tasavvurining ishlashi uchun rag'bat qat'iy standartlashtirilgan, ya'ni ranglardagi dog'lar bilan ishlash, ularni tuzatish natijalariga ko'ra o'quvchi ijodining ichki manbalarini baholash mumkin.

Mutaxassislar o'qituvchilardagi ijodkorlik darajasi va motivatsiyaning xususiyatini aniqlash uchun 2 xil usuldan foydalanganlar:

1. Savol berish orqali. Bunda o'qituvchilardagi aktyorlik qobiliyati darajasini o'rganadigan asarlar, shuningdek, xushmuomalalik, hissiyotlilik, tashvish darajasi, mustaqillik, o'ziga xoslik va o'zini tuta bilish kabi shaxsiy xususiyatlarni aniqlaydigan so'rovnomalar qo'llaniladi (R.Kettel, G.Eysensk, K.Leongard texnikasi).


2. Psixofiziologik usul. O'qituvchida kuchli hissiy reaksiyaga olib kelishi mumkin bo'lgan tasavvurni aniqlashning psixofiziologik usuli bu shaxsdagi hissiyotlarni aqliy takrorlash paytida beixtiyor reaksiyalarni qayd etishdan iborat. Bunda ularning hayoti, faoliyati va sog'lig'i uchun qo'rquvni keltirib chiqaradigan epizodlar; atrofdagilardan qo'rqish; o'zi va atrofdagilarga nisbatan adolatsizlik bilan bog'liq g'azablanish; o'zi va atrofdagilar uchun quvonch hissini tuyish kabilar kiradi.

Shu bilan birga, fiziologik funksiyalarning keng doirasi (elektroensefalogramma, yurak urish tezligi, nafas olish, teri-galvanik refleksi, nutqning tembri, chastota spektri va boshqalar) ham muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchilarda vegetativ funksiyalarning o'zgarishi sof jismoniy faoliyat natijasi bo'lmasligi uchun, ulardan muammoli vaziyatlarda jim o'tirish, imo-ishora qilmaslik va gapirmaslik talab etiladi.

II. Muayyan mavzu bo'yicha tezkor suhbat o'tkazish. Bunda o'qituvchining aktyorlik qobiliyati, birinchi navbatda, o'quvchilar o'zlari va sinfdoshlarini o'zini idora qilishga undaydigan motivlar, imkoniyatlar, sabablarni qanchalik o'rgata olishlariga bog'liq. Aks holda aktyor-o'qituvchi o'quvchilardagi ehtiyojni aniqlay olmaydi, ularning xulq-atvorlariga hech qanday o'zgarish yoki rivojlanish qila olmaydi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilarida o'quvchilarni intellektual rivojlantirishda pedagogik artistizm elementlarini shakllantirishda quyidagi asosiy **tamoyillarga** tayanish mumkin: ilmiylik; tarixiylik; aniqlik va tezkorlik; muntazamlilik va faollik; ta'lim va tarbiya ishlarining uyg'unligi; tarbiya jarayonining izchilligi; yoshlar tashabbusi va qiziqishlarini rag'batlantirish; ijobiy natija hamda yutuqlarni qo'llab-quvvatlash va h.k.

Bizga ma'lumki, aktyor va o'qituvchining pedagogik faoliyati orasida bir qator o'xshashliklar va farqli jihatlar mavjud. Aktyor ijodidagi sahna tuyg'usi hayotning kelib chiqishidan farq qiladi: bu haqiqiy stimulyat natijasida yuzaga kelmaydi. Uning yutug'i hissiy xotiradir. Sahna tuyg'usi-bu hayotiy tuyg'uni takrorlashdir, bu esa vaqtinchalik jarayon hisoblanadi. Darsda o'qituvchining tuyg'usi hayotiy, haqiqiy sharoitlarda tug'iladi, bu esa o'qituvchi faoliyatining takrorlanmasidan dalolat beradi. Pedagogik artistizm tuzilmasi 3-rasmda keltirib o'tilgan.



3-rasm. Pedagogik artistizm tuzilmasi

Dars rejasini ishlab chiqishda o'qituvchi muqarrar ravishda o'z taqdimotini tuzadi. Bu yerda hamma narsa uyg'unlik, o'lchov, ichki mantiq, bir butunlik va uning qismlarining to'g'ri nisbatini talab qiladi. O'qituvchining so'zi dars mazmuni, uning tarkibi va o'quvchilarning idrok etish imkoniyatlari bilan muvofiqlashtirilishi kerak. Dars ritmini his qilish va unga mos keladigan so'zlar pedagogik artistizm elementlaridan hisoblanadi.

